



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



O'ZBEKİSTONDA KİCHİK BİZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'NALİSHLARI

Kaxorova Zamira Safaraliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
O'qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar, kichik biznes va tadbirkorlikni mohiyati, ularni qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlari, tadbirkorlik reytingi, kuchli raqobatchilik muhitini yaratish haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkorlik, real daromad, ijtimoiy-itisodiy taraqqiyot, imtiyoz, preferensiyalar, fermer xo'jaligi, aholi soni, aholi turmush darajasi, bozor, iste'mol, ehtiyoj, ishlab chiqarish, xo'jalik.

AREAS OF DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Kakhorova Zamira Safaralieva
Tashkent State University of Economics
Teacher

Annotation: we talked about the reforms carried out in the economic sphere in our country, the essence of small business and entrepreneurship, the conditions for their support, the rating of entrepreneurship, the creation of a strong competitive environment.

Keywords: economy, Small Business, Entrepreneurship, real income, socio-economic development, privilege, preferences, farm, population, standard of living, market, consumption, need, production, farm.

Kirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga va ular uchun yanada qulay shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor ajratilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xalqning turmush darjasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish muhim yo'naliш sifatida belgilab olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik subyektlarining doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ulushini 60 foizga yetkazish, 2026 yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e'tirof etilgan [1].

2. Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda iqtisodchi olimlaridan S.S.G'ulomovning "Tadbirkorlik va kichik biznes" nomli o'quv qo'llanmasida Kichik biznesning iqtisodiy o'sishga ta'siri ifodalaydigan fikrlar keltirilmagan bo'lsa-da, unga yaqin fikrlar bildirilgan [2]. Tadbirkorlik muhitiga ichki va tashqi omillarning ta'siri va ularning o'zgaruvchanligi to'g'risida qisqa fikr berilgan.

B.Yu. Xodiev, M.S. Qosimova, A.N. Samadov kabi iqtisodchilarining mulohazalariga ko'ra "...tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to'rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi" [3].

U.V.Gafurov o'zining ilmiy ishlarida kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish, ishbilarmonlik muhitini kengaytirishga doir masalalarga e'tibor qaratgan [4].

Xorijlik olimlardan Y.Shumpetar fikricha, "iqtisodiy o'sishning negizida tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini yangi kombinatsiyasini ishlatishga, qo'llashga bo'lgan intilishi yotadi va bu intilishning natijasi innovatsiya, yangiliklar hisoblanadi" [5].

R.Xizrich tadbirkorlik–bu qiymatga ega bo'lgan yangilik yaratish jarayoni bo'lib, vaqt va ishchi kuchini o'zlashtiradi, o'ziga moliyaviy, ma'naviy-ijtimoiy javobgarlikni qabul qilishga, shaxsiy manfaatni qanoatlantirishga va ma'lum daromad olishga olib keladi deb ta'riflagan [6].

3. Tahlil va natijalar.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir [7].

Ijodkorlik tadbirkorni ta'riflashda asosiy mezon bo'ladi, tadbirkor boshqa ijodkor kishilar tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar, topilmalardan qanday qilib samarali foydalanish va shu orqali foyda olishni ko'ra olishi kerak.

Shularni hisobga olagn holda, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning bozor muhitida faoliyat ko'rsatishida tadbirkorlik faolligini baholash uslubiyotini, mezoni, ko'rsatkichlari, xususiy tadbirkorlikning rivojlanish holati va istiqbollarini aniq ifodalovchi ishlanmalar yaratish, tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni asoslash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash muhim ilmiy tadqiqotlardan bri sanaladi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yildan-yilga rivojlanib bormoqda jumladan prezident administratsiyasi huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2020 yilda 373382 tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2024 yilda mamlakatimizda 390898 tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatgan yoki ularni miqdorining ortishi 104 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin 1-rasm.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



**Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari to'g'risida
ma'lumot 2024 yil 1-iyul holatiga**



Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari soni 2021 yilda 79833 taga ortgan bo'lsa, 2022 yilda 44078 taga ortgan, 2023 yilda 82642 taga kamaygan va 2024 yilda 23753 taga kamayganligini ko'rshimiz mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi mavjud tadbirkorlik sub'ektlari va ular tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar miqdoriga bog'liq hisoblanadi, shu sababli tadbirkorlik sub'ektlari sonining kamayishi va ularning ishlab chiqarishi orasidagi bog'liqlikni tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Prezident adminstratsiyasi huzuridagi statistik aagentligining ma'lumotlariga ko'ra 2020 yildan 2024 yilgacha bo'lgan muddatda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqrishi va xizmat ko'rsatish xajmi ularning sonining kamayishidan qat'iy nazar ortib borish xususiyatiga ega bo'lgan 1-jadval.

1-jadval.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati xajmi (mlrd. so'm)

Faoliyat turlari	2020y	2021y	2022y	2023y	2024y
Sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish	10302,0,8	12490,7,9	14389,2,7	17789,2,0	28667,5,2
Qishloq xo'jaligi	25323,8,2	30445,2,1	34413,4,5	40303,8,6	44433,0,2
Xizmat ko'rsatish	11405,2,7	14706,1,6	18124,5,0	36937,8,4	46646,1,8
Import	10943,3	11533,5	15216,8	19527,8	18963,9
Eksport	3100,9	3335,2	6157,5	6938,3	8973,3





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



2022-2024 yillar davomida tadbirkorlik subyektlari soni kamaygani bilan bir vaqtida tadbirkorlik sub'ektlari tomonida ishlab chiqarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi sanoatda, qishloq xo'jaligida va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida xam ortib borganligini ko'rshimiz mumkin.

5. Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, kichik korxonalarga innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi tizimning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu turdag'i islohot dasturlariga ustuvorlikning qaratilishi mamlakatimizda kichik innovatsion biznesni rivojlantirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun zamin yaratadi. Kichik biznes bozor iqtisodiyotida xo'jalik yuritish shakli sifatida mulkchilikning har qanday shaklini inkor etmaydi. Kichik biznes mulkiy tavsifiga ko'ra murakkab xo'jalik yuritish shakli hisoblanib, mulkchilikning mavjud barcha shakllariga asosan tashkil qilinib, faoliyat yuritishi mumkin. Bozor iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar tajribasi turli mulk shakllariga asoslangan kichik biznes subyektlaridan faqat xususiy mulkchilikdagi shunday korxonalar faoliyati birmuncha samarali ekanligini ko'rsatadi.

6. Adabiyotlar/Literatura/ Reference:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//www.lex.uz
2. S.S.G‘ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: TDAU, 1998.
3. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDIU, 2010. – S. 25.
4. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017.
5. Шумпетер Й. Теория экономического развития – М.: 1982.
6. Хизрич Р. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: 1993
7. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida O‘RQ-328-son. 2012 yil 2 may,
8. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish to‘g‘risidagi PQ-39-son. 2024-yil 23-yanvar

